

"YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA SOG'LIQNI SAQLASHNING HUQUQIY ASOSLARI."

Umarova Musharrafxon

Fargona jamoat salomatligi tibbiyot institutining

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi assistenti

Abdusalomova Guloyim Shuhratbek qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Pediatriya fakulteti, pediatriya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda sog'liqni saqlash sohasiga oid belgilangan normalar, xususan, 48 va 26-moddalarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Muallif har bir shaxsning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmi hamda sog'liqni saqlash tizimining davlat va nodavlat shakllarini rivojlantirish masalalarini yoritib beradi. Shuningdek, inson qadr-qimmatini daxlsizligi va uning rozilgisiz tibbiy tajribalar o'tkazish taqiqlanganligi huquqiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, sog'liqni saqlash, tibbiy xizmat, inson huquqlari, kafolatlangan tibbiy yordam, tibbiy sug'urta, inson qadri, daxlsizlik, ijtimoiy davlat.

Inson hayoti, sog'lig'i va daxlsizligi har qanday demokratik davlatning oliy qadriyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotining yangi bosqichida o'zini "Ijtimoiy davlat" deb e'lon qilgan ekan, fuqarolarning salomatligini muhofaza qilish masalasi shunchaki ijtimoiy vazifa emas, balki konstitutsiyaviy majburiyat darajasiga ko'tarildi. 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va inson qadri ulug'lashning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada yangilangan Bosh qomusimizda sog'liqni saqlash sohasiga oid kiritilgan prinsipial o'zgarishlar va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.

Dastlabki Konstitutsiyada davlat ko'proq boshqaruvchi rolda edi. Yangi tahrirda esa davlat majburiyat oluvchi subyektga aylandi. Masalan, 48-moddada davlat nafaqat xizmat ko'rsatadi, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga mas'ul etib belgilandi. Endilikda fuqaro o'ziga tegishli bo'lgan bepul xizmatlar ro'yxatini talab qilish huquqiga ega. Bu korrupsiyani kamaytirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Pandemiya darslaridan kelib chiqib, yangi Konstitutsiyaga aholining epidemiologik xavfsizligini ta'minlash normasi kiritildi. Bu davlatning favqulodda holatlarda sog'liqni saqlash tizimini safarbar etish majburiyatini mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan



holda yangi tahrirdagi ayrim moddalarning tahlilini ko'rib chiqamiz:

48-modda.

Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'radi.

Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Keltirilgan norma O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash sohasining konstitutsiyaviy asoslarini belgilaydi. Ushbu modda har bir insonning sog'lig'ini saqlash huquqini e'tirof etadi va davlatning bu boradagi majburiyatlarini aniq ko'rsatadi. Avvalo, "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega", - degan jumla insonning asosiy, ajralmas huquqlaridan biri sifatida sog'liqni muhofaza qilishni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, mamlakat hududida yashayotgan har bir shaxs millati, jinsi, yoshi va ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, teng asoslarda sifatli tibbiy yordam olish huquqiga ega. Shu bilan birga, bu norma tibbiy xizmat professional darajada, zamonaviy talablarga muvofiq bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Moddaning keyingi qismi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olish imkoniyatini belgilaydi. Bu esa davlat tomonidan aholiga bepul taqdim etiladigan minimal, ammo zarur tibbiy xizmatlar ro'yxati mavjudligini anglatadi. Ushbu kafolatlangan paketga birinchi tibbiy yordam, ayrim diagnostika xizmatlari, tug'ruq va onalikni muhofaza qilish, bolalar salomatligini himoya qilishga doir tibbiy xizmatlar kiradi. Bu norma aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirib, sog'liqni saqlash sohasida tenglikni ta'minlaydi. Moddaning navbatdagi bandida davlatning sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishdagi faol roli aks etadi. Unda sog'liqni saqlash tizimining davlat va nodavlat shakllarini qo'llab-quvvatlash, tibbiy sug'urtaning xilma-xil turlarini joriy etish va rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu sog'liqni saqlash tizimini zamonaviy, barqaror va raqobatbardosh holga keltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'rishi ham belgilangan bo'lib, bu infeksiyon kasalliklarning tarqalishining oldini olish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, profilaktik tadbirlarni muntazam olib borishni nazarda tutadi. Moddaning so'nggi qismida davlatning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasidagi vazifalari ko'rsatiladi. Bu sog'liqni saqlash sohasida profilaktikaning ustuvor ahamiyatga ega ekanini bildiradi. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport inshootlarini rivojlantirish, jismoniy faollikni keng targ'ib qilish, zararli odatlardan voz kechishni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi belgilab qo'yilgan. Chunki aholining jismoniy faolligi va sog'lom turmush tarzi kasalliklarning



oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu modda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimining demokratik, insonparvar va ijtimoiy yo'nalishga ega ekanini ko'rsatadi. U nafaqat tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kafolatlaydi, balki davlatning aholining salomatligini saqlash, tibbiy yordam sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasidagi majburiyatlarini ham belgilab beradi.

26-modda.

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Deputatlar Konstitutsiyada har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqliligi belgilab qo'yilgani, bu esa, ijtimoiy davlatning inson huquqlarini ta'minlashda huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilishini qayd etdilar.

Bosh qomusimizda davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'rishi ham o'z aksini topdi. Bu esa o'z navbatida, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish borasida sog'lom raqobat muhitini yaratadi.

Qo'mita a'zolari keyingi yillarda sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotgani, xususan, sog'liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 300 dan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilinib, hayotga tadbiiq etilayotganini ta'kidladilar.

Davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish samaradorligini, sifatini va qulayligini oshirish ta'minlanmoqda. Eng muhimi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlari inobatga olinib, bugungi kunda u huquqlarimiz kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. O'tgan qisqa davrda barcha sohalar qatori, tibbiyot tizimida ham katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ldi, oxirgi yillarda ixtisoslashgan tibbiy xizmat aholiga yanada yaqinlashdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023-yil (Yangi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni. 1996-yil 29-avgust (va keyingi o'zgartirishlar).Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "Tasvir", 2022.
3. Abduhakimov A. Sog'liqni saqlash tizimida islohotlar va huquqiy kafolatlar. // O'zbekiston tibbiyot jurnali. – 2023.
4. Karimov X. va boshqalar. Tibbiyot huquqi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2021.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – 1948-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5124-sonli qarori.

